

# Talabalarni natyurmort ishlashga o'rgatish jarayonida shakllarni konstruktiv ifodalash malakalarini rivojlantirish

Muxtorjon Abduraximovich Umataliyev  
muhtorjonusumataliyev@gmail.com  
Namangan davlat universiteti

**Annotatsiya:** Mazkur maqola talabalarni natyurmort janrida badiiy ijod qilish, natyurmortni shakllantirishda uning kompozitsiyachi, mavzuning tanlanishi, natyurmortning turlari va uni ishlashda turli tasvirlash vositalaridan foydalanish kabi masalalar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** natyurmort, badiiy ijod, kompozitsiya, rang, shakl, konstruktivlik

## development of students' skills of constructive expression of forms in the process of learning to work on still-life painting

Mukhtarjon Abdurakhimovich Umataliyev  
muhtorjonusumataliyev@gmail.com  
Namangan State University

**Abstract:** This article deals with such issues as students' artistic creativity in the genre of still life, still life composition, choice of subject, types of still life and the use of various means of fine arts in their work.

**Keywords:** still life, artistic creativity, composition, color, form, constructiveness,

Natyurmort - kundalik hayotda ishlatiladigan buyumlar, mevalar, sabzavotlar, gullar va boshqalarni ifodalaydigan tasviriy san'at janridir. Natyurmort chizayotgan rassomning vazifasi - insonni o'rab turgan predmetlar, ularning hajmdor va moddiy mohiyatini ranglar yordamida yetkazib berish, shuningdek, tasvirlanayotgan narsalarga o'z munosabatini bildirish demakdir. Ta'lrim davrida rangtasvir mahoratini shakllantirish va unga sayqal berishda natyurmort chizishning o'rni beqiyos, chunki boshlovchi rassom uning ko'magida ranglar uyg'unligi, majoziy, ramziy mazmuni qonunlarini o'rganadi, shakllarni modellashtirish bo'yicha malaka va ko'nikma oladi.

Natyurmort - zamonaviy musavvirlarning eng sevimli janri hisoblanadi. Natyurmort ochiq havoda(plener), tabiat qo'ynida, rassom ustaxonasi, binolar intererida dunyoga keladi, oddiy va murakkab sahnalashtirish yo'lidan boriladi, asar

unsurlarini tartibga solish, joylashtirishda an'anaviy va eng zamonaviy narsalar, insonning maishiy turmushi buyumlari to'plamidan foydalilaniladi.

Natyurmortlarning bir necha turlari mavjud:

- syujetli-mavzuviy, o'quv, o'quv-ijodiy, ijodiy.

Natyurmortlar:

- koloriti (iliq, sovuq);

- rangi (bir-biriga yaqin, kontrast);

• yorug'lik berish usuli (to'g'ridan yoritish, yon tomondan yoritish, yorug'likka qarshi);

- joylashgan o'rni (interer, tabiat);

• bajarilgan vaqt (qisqa muddatli - "qoralama" va uzoq muddatli - ko'p soatli faoliyat);

- berilgan o'quv vazifasi (realistik, dekorativ va h.) bo'yicha ajratiladi.

Tabiatdagi natyurmort ikki turga mansub bo'lishi mumkin: birinchisi avvaldan tanlangan mavzuga oid, ikkinchisi - tabiiy, "tasodify". U mustaqil asar yoki muayyan janrdagi tasvir yoxud manzaraning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Ko'pincha tabiat manzarasi yoki janrga xos sahna natyurmortni to'ldiradi xolos.

Intererdagi natyurmort ulkan makon bilan qamrab olingen narsalarni muayyan tartibda joylashtirishni taqozo etadi va natyurmort ob'ektlari intererga syujet talablaridan kelib chiqib bo'ysunadi.

Syujetli-mavzuviy natyurmort predmetlarni mavzu va voqealar tizimi bilan bog'lashni nazarda tutadi.

O'quv natyurmorti (akademik). Unda, syujetli-mavzuviy natyurmortdagi kabi, predmetlarni o'lchami, toni, rangi va tuzilishiga ko'ra muvofiqlashtirish, narsalarning konstruktiv xususiyatlarni ochib berish, ularning o'zaro mutanosibligini o'rganish hamda turli shakllarga xos qonuniyatlarni aniqlash zarur. O'quv natyurmorti ijodisidan maqsadning aniq va qat'iy belgilanishi bilan farq qiladi: U talabaga tasviriy savodxonlik asoslarini o'rgatadi, ularning fikrlash, o'qish-o'rganish qobiliyatini faollashtiradi va mustaqil ijodiy faoliyatga rag'batlantiradi.

Dekorativ natyurmort naturaning aniq tasviri emas, balki ushbu natura haqidagi o'y-mulohazalarning ifodasidir:

- bu faqat ob'ektgagina xos xususiyatlarni saralab olish va muhrlash;

- tasodify va ahamiyatsiz unsurlardan voz kecha bilish;

• rassomning natyurmort qurilmasini muayyan vazifaga tobe qila olish san'atidir.

Dekorativ natyurmortning ijodiy yechimi tasvirning fazoviy chuqurlik bag'ridagi mohiyatini shartli yassi yuzada ifodalangan makon mazmuniga aylantirish

tamoyiliga asoslangan. Shu bilan bir paytda, uncha chuqur bo‘lmagan makonga joylashtirilgan bir necha ko‘rinishlardan foydalanish mumkin.

“Usul” atamasi - biror narsaga erishish, muayyan maqsadni amalga oshirish uchun talab qilinadigan harakatlar, usullar majmuasini anglatadi. Pedagogikada usul deganda, an'anaga ko‘ra, o‘quv-tarbiyaviy maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan tizimli say’-harakatlar yig‘indisi tushuniladi. Shu bilan bir qatorda, o‘qituvchining ta’lim berish faoliyatini amalga oshirish usullari va talabalarning harakatlar majmuasi bir-biri bilan uzviy bog‘liq ekani hamda ularning doimiy ravishda munosabatlarga kirishishi ta’kidlanadi.

Ta’lim berish usuli uch xususiyat bilan tavsiflanadi. U o‘qitish maqsadi, o‘zlashtirish usullari va ta’lim jarayoni sub’ektlarining o‘zaro ta’siri tabiatini ifodalandaydi. O’qitish usuli tushunchasi quyidagilarni aks ettiradi: o‘qituvchining ta’lim berish bilan bog‘liq harakatlari majmuasi va ta’lim oluvchilarining o‘quv ishlari usullari hamda har ikkisining o‘zaro aloqadorligi; ularning turli o‘quv maqsadlariga erishish bo‘yicha faoliyati xususiyatlari. Xulosa shuki, ta’lim berish usullari - bu o‘qituvchi va talabaning didaktik va o‘quv vazifalarini hal qilishga qaratilgan hamkorlikdagi faoliyatini amalga oshirish yo‘llaridir.

Didaktikada ta’lim berish usullari orqali alohida olingan jihatlar, usulning tarkibiy qismlari tavsiflanadi. Masalan, tasvirlash jarayonida talabalarning predmet shakli, kattaligi, rangi va boshqa sifatlari to‘g‘risidagi tasavvurlariga oydinlik kiritish maqsadida illyustratsiya yoki narsaning o‘zini ko‘rsatishni (agar talabalar nimadandir qiynalayotgan bo‘lishsa) shular sirasiga kiritish mumkin. Ta’lim berish usullari va yo‘llari orasida dialektik birlik mavjud bo‘lib, ularning o‘zaro o‘rin almashinib turishi odatiy holatdir.

Yo‘l - xususiy vazifani hal qilishning musavvir yoki badiiy mактабга xos texnik usuli; umumiylar yoki shaxsiy pedagogik madaniyatda qayd etilgan ta’lim-tarbiya texnologiyasining nisbatan shakllangan elementi; usul unsuri, uning tarkibiy qismi va usulni amalga oshirishdagi muayyan qadam.

Kuzatish usuli tasviriy san’atga o‘qitish tizimining asosini tashkil qiladi. Talaba ijodiy qobiliyatining rivojlanishi, shuningdek, rangtasvir materiallari bilan ishslash texnikasini o‘zlashtirishdagi muvaffaqiyatlari uning atrof-muhitni kuzata bilish, voqelikdagi hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilg‘ay olish, umumiylilik va xususiylik orasidagi tafovutni farqlash xislatining qanchalar kamol topganiga bog‘liq.

Auditoriyadagi tasviriy san’at darslarida turli usul va yo‘llardan foydalaniladi va ularni shartli ravishda ko‘rgazmali va og‘zaki turlarga taqsimlash mumkin. O‘yin usullari talabalar uchun alohida ahamiyat kasb etadigan, o‘ziga xos ta’lim yo‘llari guruhidir. Ular ham ko‘rgazmalilik, ham og‘zaki ta’limni o‘zida mujassam qilgan.

Ta'lim berish usuli, pedagogikada qabul qilingan ta'rifga muvofiq, qo'yilgan vazifani hal qilishga har tomonlama yondashish bilan ifodalanadi hamda talaba va o'qituvchining ushbu mashg'ulotdagi yaxlit faoliyatini xususiyatini belgilab beradi.

Ta'lim yo'li - harakatlar majumasining nisbatan xususiy, yordamchi yo'nalishi bo'lib, mashg'ulotlardagi faoliyat mazmunini to'la-to'kis aniqlashtirib berolmaydi va tor doiradagi maqsadlarga xizmat qiladi.

Ta'lim berishning ko'rgazmali usullari va yo'llariga quyidagilar kirdi:

- naturadan foydalanish;
- pedagogik rasm;
- kartinalar reproduksiyasi;
- namunalar va boshqa ko'rgazmali qurollar;
- muayyan predmetlarni ko'zdan kechirish;
- o'qituvchi tomonidan ifodalash usullarining namoyish etilishi;
- talabalar ishlarini mashg'ulot oxirida, ularni baholash paytida ko'rsatish.

Tasvirni qurish tamoyillari haqida gap borganda, og'zaki ta'rifni albatta sinf doskasidagi pedagogik rasm yordamida to'ldirish, predmetning asosiy shaklini ifodalashning to'g'ri yo'lini ko'rsatish zarur. Bu talabalarga o'zлari uchun eng qiyin ko'ringan vazifalarni hal qilishda ko'maklashadi.

Pedagogik rasm - rangtasvir materiallari bilan ishslash texnikasini o'rgatishda juda muhim ahamiyatga ega vositalardan biri hisoblanadi. Ba'zi paytlarda namuna sifatida pedagogik rasmni soddalashtirish, tarkibiy qismlarini yaqqol ko'rsatgan holda namoyish qilish kerak. Bu o'quvlarga shakl tuzilmasi, uning konstruksiyasi, plastik xususiyatlarini chuqur va to'g'ri tushunishda yordam beradi.

Natura bilan ishslash predmetni muayyan nuqtai nazar ostida, chizayotgan shaxs ko'ziga nisbatan joylashuvidan kelib chiqib tasvirlashni talab etadi. Naturadan tasvirlashning ushbu xususiyati mashg'ulot jarayonidagi idrokning o'ziga xosligini ifodelaydi. Bu o'rinda ko'rish idroki ustivorlik qiladi va yuzada tasvirlangan predmet faqat bir tomonlama qabul qilinadi.

Talabalarni predmetni uning sifatlarini jamlagan holda idrok etish qobiliyatiga ega. Lekin predmetni naturaga qarab ifodalash uning makondagi joylashuvi hamda tarkibiy qismlari nisbatini tahlil qila olishni taqoza etadi.

Tasviriy san'at darslarida naturadan foydalanishning ayrim xususiyatlariga izoh beraylik. Natura, birinchi navbatda, xotira ishni yengillashtiradi, chunki tasvirlash jarayoni idrok qilish bilan uyg'unlashib ketadi; talabalarga predmet shakli va qurilmasi, rangni to'g'ri anglash va yetkazib berishda yordam ko'rsatadi.

Predmetni idrok qilarkan, talaba uning hajmini (uch o'lchamli naturani ikki o'lchamli yuzada aks ettirish) ko'rsatishi kerak, bu esa yorug'lik-soya munosabatlarini qo'llash, predmetning istiqbolli o'zgarishlarini yetkazib berish, turli rangtasvir usullaridan foydalanish, murakkab resurslarni ko'rsatish bilan bog'liq.

Shunday qilib, naturadan foydalanish ta'lim usuli sifatida tasvirlash jarayonini butunlay qamrab oladi:

- predmetning birlamchi tahlili;
- rangtasvir materiallari bilan ishlashda foydalaniladigan texnik usullar tahlili;
- tasvirni natura shakli, holati, rangi bilan taqqoslash;
- rasm va naturani qiyoslash orqali talaba ishini baholash.

Namuna, natura kabi, usul sifatida ham, ta'lim berishning alohida yo'li maqomida ham namoyon bo'lishi mumkin. Tasviriy faoliyatning atrof-muhitdan olingan taassurotlarni mustahkamlashga qaratilmagan, balki ushbu faoliyatning alohida jihatlarini rivojlantirish vazifasi belgilangan turlarida namuna ta'lim berish usuli sifatida qo'llaniladi. Agar talabalar biron-bir rangtasvir texnikasini o'zlashtirishgan bo'lsa, ba'zida tanlash uchun bir necha namunalarni ko'rsatish mumkin.

Ayrim hollarda namuna ta'lim berish yo'li sifatida e'tirof qilinadi. Masalan, predmetli chizishda namunadan nusxa ko'chirish maqsadida emas, balki talabalarning tasvirlanayotgan predmet to'g'risidagi tasavvurlarini aniqlashtirish uchun foydalaniladi. Buyuk rassomlar asarlari reproduksiyalarini ko'rsatish ham rangtasvir materiallari bilan ishslash texnikasi o'zlashtirish va yanada rivojlantirish, ifodalash vositalari va usullarini ta'riflashga xizmat qiladi.

Zarur predmet bo'limgan vaziyatlarda, kartinalar reproduksiyasini tomosha qilishni tavsiya qilish mumkin, shuningdek, bu usul talabalarni yuzada ifodalashning ba'zi vositalari, rangtasvir texnikasining rang-barangligi bilan tanishtirishda yordam beradi. Masalan, pedagog muayyan predmetlarning qanday tasvirlangani, u yoki bu rangtasvir materiallaridan qaysi maqsadda foydalanish mumkinligi, ularni amalda qo'llash yo'llarini tushuntirish uchun buyuk rassomlar asarlari reproduksiyasini ko'rsatadi.

Tasviriy san'at bo'yicha dastur har bir talabaning ta'lim davrida o'zlashtirishi lozim ifodaviy malaka va ko'nikmalar hajmini belgilab beradi. Nisbatan kichik hajmdagi malakaga ega bo'lish ham talabalarga rang-barang predmetlarni tasvirlashga imkon beradi.

O'qituvchining ifodalash vositalarini ko'rsatishi ko'rgazmali va samarali yo'l bo'lib, u talabalarni, shaxsiy tajribasidan kelib chiqib, kerakli shaklni ongli ravishda yaratishga o'rgatadi. Ko'rsatish ikki xil bo'lishi mumkin: qo'l imo-ishorasi bilan, ifodalash yo'llari orqali. Har ikki holatda ham ko'rsatish og'zaki ta'rif bilan boyitilishi kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Baymetov Botir Boltaboevich Formation of the skills of portraying the future teacher of fine arts in pencil drawing ACADEMICIA: An International

Multidisciplinary Research Journal Year: 2020, Volume: 10, Issue:5 Firstpage: (1122)

2. Botir Boltabaevich Baymetov, Muratov Khusan Kholmuratovich, Self Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation; 32(3) ISSN 2651-4451 | e-ISSN 2651-446X www.turkjphysiotherrehabil.org 30493 Sketches as a Tool in the Professional Training of a Future Artist-Teacher. Vol. 63. No. 2, (2020) @ www.solidstatetechnology.us
3. Б.Байметов. История развития изобразительного искусства Узбекистана. Наука, образование и культура, Москва, 2016. стр. 19-23.
4. Baimetov Botir Boltabayevich, Sharipjonov Muhiddin. Development of students» descriptive competencies in pencil drawing practice. Issue 08, 2020 issn 2689-100x the usa journals, usa www.usajournalshub.com/index.php/tajssei... mso, ISSN 2689-100X The USA Journals, 261-267.
5. Baymetov, B. B., & Sharipjonov, M. S. O. (2020). Development Of Students'Descriptive Competencies In Pencil Drawing Practice. <http://www.usajournalshub.com/index.php/tajssei>. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(08), 261-267.
5. Boltabayevich, B. B., & Shodievna, B. O. (2020). Individual Approach To The Formation Of Artistic And Creative Talents Of Students In Art Schools. <http://www.usajournalshub.com/index.php/tajssei>. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(08), 637-642.
6. Baymetov, B. B., & Sharipjonov, M. S. O. (2020). Development Of Students' Descriptive Competencies In Pencil Drawing Practice. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(08), 261-267.
7. Boltabayevich, B. B., & Shodievna, B. O. (2020). Individual Approach To The Formation Of Artistic And Creative Talents Of Students In Art Schools. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(08), 637-642.
8. Boltabayevich, B. B., & Pardaboy, K. (2020). Scientific and theoretical aspects of the formation of compositional abilities of students in painting Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation; 32(3) ISSN 2651-4451 |e-ISSN 2651-446X www.turkjphysiotherrehabil.org 30494 classes. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(3).
9. Байметов Ботир Болтабаевич. Актуальные вопросы подготовки педагогических кадров республике Узбекистан. Международный научный журнал «ВЕСТНИК НАУКИ» 2020/10. Том 1. 10 (31). Страницы 5-9.
10. Байметов Ботир Болтабоевич. Таасирий санъатдан бўлажак рассом-ўқитувчиларни касбий тайёрлашда композиция фанининг назарияси ва методикаси. Science and education journal. 2020/4. Стр. 461-467

11. Байметов, Б. Б. (2020). Педагогика олий таълим муассасаларида талабаларга композиция фанини ўқитишнинг назарияси ва амалиёти. *Science and Education*, 1(7).
12. Байметов, Б. Б., & Талипов, Н. Х. (2016). Методическая последовательность ведения работы над живописным портретом в педагогическом ВУЗЕ. *Научная дискуссия: вопросы педагогики и психологии*, (4-1), 46-50.
13. Baymetov, B. B. (2020). Development Of The Ability To See And Represent The Form Remotely In The Process Of Teaching Students To Portray A Creature In Higher Pedagogical Education. *The American Journal of Applied sciences*, 2(10), 154-159.
14. Botir Boltabaevich Baymetov. Development Of The Ability To See And Represent The Form Remotely In The Process Of Teaching Students To Portray A Creature In Higher Pedagogical Education. 2020/10 Журнал. The USA Journals. Том 2. Страницы- 154-159
15. Botir Boltabayevich Baymetov. Technologies Of Moving Images Of People From Different Views In Fine Arts Lessons. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*. *The American Journal of Social Science and Education Innovations* (ISSN - 2689-100x) Published: January 31, 2021. Стр. 463-468 Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation; 32(3) ISSN 2651-4451 | e-ISSN 2651-446X www.turkjphysiotherrehabil.org 30495
16. B.B Baymetov. Inson qomatining turli ko'rinish va holatlaridan qisqa muddatli tasvirlaridan bajarish myetodikasi. "Science and Education" Scientific Journal January 2021 / Volume 2 Issue. 357-365
17. Botir Boltabaevich Baymetov. oliy pyedagogik ta'limda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning ba'zi masalalari. academic research in educational sciences volume 2 | issue 1 | 2021. 277-283 бетлар.
18. BB Baymetov, XX Muratov.Tasviriy san'atdan amaliy mashg'ulotlarida talabalarning tasvirlash mahoratlarini takomillashtirish texnologiyalari.Science and Education, 2021.349-354.
19. Муқаддам Тожикузи кизи Хамроулова, Рашид Нематович Зульфиев, Ботир Болтабаевич Байметов. Теория и практика преподавания академического рисунка в подготовке будущего художника педагога. *Science and education scientific journal*. 2020/12.Том 1. Номер 9. стр 364-372.
20. Botir Boltabaevich Baymetov. Art Of Modern Uzbekistan: The History Of Its Development During The Years Of Independence. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*. 2020/10. 125-132.
21. BB Boltaboevich. Methods of portraiture in the process of making sketches and drawings of the human face in higher pedagogical education. International

Journal of Psychosocial Rehabilitation, 2020. Том 24. Номер 5.Страницы 6408-6415.

22. Botir Boltabayevich Baymetov. Technologies Of Moving Images Of People From Different Views In Fine Arts Lessons. The American Journal of Social Science and Education Innovations. 2021/1. The American Journal of Social Science and Education Innovations (ISSN - 2689-100x) Published: January 31, 2021.том 3.номер 1. Страницы 463-468.

23. BB Baymetov.Inson qomatining turli ko'rinish va holatlaridan qisqa muddatli tasvirlaridan bajarish myetodikasi"Science and Education"Scientific. January 2021.VOLUME 2Issue1.357-365. Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation; 32(3) ISSN 2651-4451e-ISSN 2651-446X www.turkjphysiotherrehabil.org 30496

24. BB Baymetov, XX Muratov. Tasviriy san'atdan amaliy mashg'ulotlarida talabalarning tasvirlash mahoratlarini takomillashtirish texnologiyalari. Science and Education, 2021. 349-356.

25. Botir Boltabaevich Baymetov Xusan Xolmuratovich Muratov. Methods Of Teaching Students To Do Sketches In Independent Learning.2020/12. The American Journal of Social Science and Education Innovations. 2. Номер 12. Страницы 8-13

26. Ulfat Shuxratovich Ismatov Botir Boltabaevich Baymetov. Pedagogika oliv ta'lim muassasalarida talabalarini bosh namunasini tasvirlashga o'rgatish orqali tyexnik mahoratlarini takomillashtirish. 2020/11. "Science and Education" Scientific Journal November 2020 / Volume 1 Issue 8 Страницы 476-484

27. Laylo Mirsoatova Botir Boltabayevich Baymetov. Oliy pyedagogik ta'linda inson qomatini tasvirlashning nazariyasi va myetodikasi.2020/11 "Science and Education" Scientific Journal November 2020 / Volume 1 Issue 8. Страницы 467-475

28. Botir Boltabaevich Baymetov, Ulfat Shuhratovich Ismatov. Development of competencies of future fine art teachers in description of nature in graphic materials. 2020. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal.том 10.Номер 11.Страницы 864-871.

29. Botir Boltabaevich Baymetov. Creativity Of The Outstanding Artist-Miniaturist Kamaleddin Behzad (1455-1536). International scientific and current research conferences "science and innovation in the xxi century: crucial issues, discoveries and achievements" Doi - 03 2021/2/19.Pages: 67-71. Hungary, Europe.

30. Shoxidahon Odiljonovna Botirova Boltabaevich Baymetov. Theoretical foundations of coloring in the organization of fine arts classes.2021/4. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal <https://saarj.com>.Том 11,номер 4,Страницы 775-782. Turkish Journal of

Physiotherapy and Rehabilitation; 32(3) ISSN 2651-4451 | e-ISSN 2651-446X  
www.turkjphysiotherrehabil.org 30497

31. Bobur Abdugani Ogli Nabiiev Botir Boltabayevich Baimetov. Technologies for Improving the Composition of Students in the System of Higher Pedagogical Education 2021/4. The American Journal of Social Science and Education Innovations. Номер 03. Страницы 64-70

32. Pardaboy Khudoyberdiev Baimetov Botir Boltabayevich Use The Theoretical Foundations Of Color Science In Teaching Students To Work With Educational Productions From Painting. 2021/3. The American Journal of Social Science and Education Innovations. Номер 03.Страницы 330-337.

33. Muxiddin Sharipjonov Botir Baymetov. Oliy pedagogik ta'limda talabalarga inson qiyofasini amaliy tasvirlash jarayonida ijodiy kompyetyensiyalarini rivojlantirish. 2021. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES. Том 2.Номер 3.1066-1070.

34. Iqboloy Ibrahimova Botir Boltabaevich Baymetov. Technologies for using fine arts in developing students' artistic imagination. 2021/4. Asian Journal of Multidimensional. Research (AJMR) <https://www.tarj.in>.Том 10.4. 544-551.

35. Botir Boltabayevich Baymetov. Theory and Practice of Teaching Composition to Future Fine Arts Teachers in Pedagogical Higher Education Institutions Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation; 32(3) ISSN 2651-4451 | e-ISSN 2651-446X. www.turkjphysiotherrehabil.org. Pages: 30482-30497

36 Байметов Ботир Болтабаевич.ТАСВИРИЙ САНЪАТ ДАРСЛАРИДА ҲАРАКАТДАГИ ИНСОНЛАРНИ ҲОМАКИ ТАРЗДА ТАСВИРЛАШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ. 2022/7. Multidisciplinary Scientific Journal. Том 1, номер 4. Стр.136-139.

37. BB Boltaboevich, K Ogiloy. MASTER OF HISTORICAL PORTRAIT GENRE. 2008. A TEACHER WHO CREATED A SCHOOL IN THE FIELD OF FINE ARTS PEOPLE'S ARTIST OF UZBEKISTAN PROFESSOR MALIK NABIEV (1906-2008)

38. MT kizi Khamrokulova, RN Zulfiev, BB Baymetov, Theory and practice of teaching academic drawing in the preparation of the future artist-teacher Science and education scientific journal 12,2020. 364-372

39. BB Baymetov. Methods of performing short-term images of the human body from different perspectives and conditions." Science and Education" Scientific Journal 2 2021 (357-365)